

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA UMUMMADANIY KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING AMALIY JIHATLARI

Baydjanova Dinora Karimovna

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0004-9384-2166

Annatsiya: mazkur maqolada, avvalombor, kompetensiya hamda kompetentlik tushunchalarining nima ekanligi haqida to'xtalib o'tilgan. Kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari, uning turlari haqida ham aytib o'tilgan. Shu qatori pedagogik kompetentlik o'zi nima ekanligi haqida ham aytib o'tilgan. Shu bilan birga, umummadaniy kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning asosiy tarkibiy qismlari haqida keltirib o'tilgan. Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish masalalariga ham yuzlangan.

Аннотация: в данной статье, прежде всего, основное внимание уделяется тому, что представляют собой понятия компетентности и компетентности. Также упомянуты основные компоненты компетентности и ее виды. Кроме того, было упомянуто о том, что такое педагогическая компетентность. При этом упоминается сущность понятия универсальной компетентности и ее основные компоненты. Он также затронул вопросы развития общекультурной компетентности у будущих учителей.

Abstract: this article, first of all, focuses on what the concepts of competence and competence are. The main components of competence and its types are also mentioned. In addition, it was mentioned about what pedagogical competence is. At the same time, the essence of the concept of universal competence and its main components are mentioned. He also addressed the issues of developing general cultural competence in future teachers.

Kalit so'zlar: kompetentlik, motivatsiya, kasbiy kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, madaniy kompetentlik, pedagogik kompetentlik.

Ключевые слова: компетентность, мотивация, профессиональная компетентность, социальная компетентность, культурная компетентность, педагогическая компетентность.

Key words: competence, motivation, professional competence, social competence, cultural competence, pedagogical competence.

KIRISH

“Kompetensiya” so'zi tarjimada “layoqatli”, “munosib bo'lmoq” kabi ma'nolarni anglatuvchi lotincha “competere” so'zi asosida hosil bo'lgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi.

Kompetentlik—bu shaxsning ma'lum bir sohada bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lib, o'z faoliyatini samarali tashkil etish va natijaga erishish qobiliyatidir. Kompetentlik insonning nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliyotda ulardan t'g'ri foydalanish ko'nikmalariga ega ekanligini bildiradi.

Olimlarning ilmiy izlanishlar natijasiga ko'ra, ijtimoiy-psixologik, kasbiy kompetentlik ta'lim tizimini boshqaruv tizimi uchun zarurat sifatida qaralmoqda. Bu esa o'z navbatida boshqaruvchi tomonidan alohida bilim, ko'nikma va malakalarning o'zinigina emas, balki egallanishi lozim bo'lgan har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrative bilimlar boshqaruvining tasirchan usul va vositalari, boshqaruvdagi muomala madaniyati va rahbarlik faoliyatiga doir ijodiy harakatlarning o'zlashtirilishi nazarda tutadi.

KOMPETENTLIKNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI:

1. *Bilim*—muayyan soha yoki asosiy nazariy va amaliy tushunchalarni bilish.
2. *Ko'nikma va malakalar*—bilimlarni amalda qo'llash qobiliyati, jarayonlarni boshqarish tajribasi.
3. *Tajriba*—vaqt davomida orttirilgan amaliy faoliyat natijasida shakllangan qobiliyatlar.
4. *Shaxsiy sifatlar*—mas'uliyat, muloqotda aniqlik, muammolarni hal qilishda ijodkorlik kabi xususiyatlar.
5. *Mativatsiya*—o'z maqsadlariga erishishga intilish va bunga ishonch.

Kompetentlikni vazifasiga ko'ra bir qancha turlarga bo'lishimiz mumkin. Bularga misol qilib quyidagilarni aytish mumkin:

- ✓ *Kasbiy kompetentlik*—ish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan maxsus bilim va malakalarning mavjudligi.
- ✓ *Ijtimoiy kompetentlik*—jamo'a bilan ishlash qobiliyati, muloqot va hamkorlik ko'nikmalari.
- ✓ *Shaxsiy kompetentlik*—o'zini-o'zi boshqarish, maqsad qo'yish va unga erishish qobiliyatlari.
- ✓ *Madaniy kompetentlik*—turli madaniy kontekstlarda muloqot qilish va to'g'ri qarorlar qabul qilish.

Kompetentlik muhim ahamiyatga ega. Uning ahamiyatli tomoni shundaki, u faoliyat samaradorligini ooshiradi, kasbiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi, raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. **Pedagogik kompetensiya**—tizimli hodisa bo'lib, uning mohiyati medagogik faoliyatni samarali amalga oshirish, pedagogik muloqot jarayonini mmaqsadli tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik bilim, tajriba o'qituvchining xossalari va sifatlarining tizimli birligidan iborat, o'qituvchining xossalari va sifatlarining tizimli birligidan iborat, o'qituvchining shaxsiy rivojlanishi va takomillashtirishni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR TTAHLILI VA METODOLOGIYA

Keying o'n yillar mobaynida bir qator Yevropa, AQSh, Rossiya va bizning mamlakatimizda, oliy ta'lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Bunda asosiy e'tibor talabalarda egallayotgan mutaxassisligi bo'yicha kompetensiya shakllanishi va takomillashuviga qaratilmoqda. Bugungi kunlarda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mutaxassis talab qilinyapti. U faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, ilmiy ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o'z amaliy faoliyatida qo'llovchi mutaxassis bo'lib yetishishi lozim.

Olimlarning fikriga ko'ra, oliy ta'limni isloh qilish, yangilash, takomillashtirishda zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy yo'llaridan biri *kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuv* hisoblanadi. Oliy ta'limda o'qish va tarbiyaning bunday uslubini

joriy qilish o'zidan an'anaviy qarashlarni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Bilim, ko'nikma va tajribalar bu borada endi kamlik qilishi ko'zga tashlanmoqda.

Kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuvning dolzarbligini Vatanimiz ta'lim-tarbiya tizimida ham sezish mumkin. Kompetensiya, eng avvalo, davlat va jamiyat tomonidan beriladigan ishonch, vakolat ekanligini ta'kidlash zarur. Aniqrog'i, mamlakatimiz manfaati uchun xizmat qilish kompetensiyasi—vakolati zarurligini ko'ramiz. Pedagogik kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishni uzviy birlashtiruvchi tizim ekanligini ta'kidlaymiz.¹⁴ “Bizga bitiruvchilar emas, balki maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan kadrlar kerak”—degan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov. 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilindi. Bu hujjatlar haqida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov: “Mustaqilligimizning, bugungi va ertangi hayotizmizning kafolati hisoblanadi”,—degan edi.¹⁵ Milliy dasturning maqsad va vazifalari ularning asoslanganligi, muhimligi va muammolarni hal qilish yo'llari ilmiy asosga tayanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Umummadaniy kompetentlik—bu o'qituvchining turli madaniyatlar, qadriyatlar va ijtimoiy norma haqida bilimga ega bo'lishi, madaniyatlarga muloqot qilish qobiliyati va shaxsiy madaniy darajasini rivojlantirishni anglatadi. Bu kompetentlik o'qituvchilarning pedagogic faoliyatida muhim ahamiyatga ega, chunki ular faqat darsni o'qitish bilan cheklanmay, jamiyatning ma'naviy va madaniy o'sishiga ham hissa qo'shadilar.

UMUMMADANIY KOMPETENTLIKNING TARKIBIY QISMLARI

- ✓ *Madaniy savodxonlik*: o'z milliy madaniyati va boshqa madaniyatlar haqida chuqur bilimga ega bo'lish.
- ✓ *Madaniyatlararo muloqot qobiliyati*: turli madaniy va ijtimoiy guruhlardagi o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish.
- ✓ *Estetik did va yaratuvchanlik*: san'at, adabiyot va boshqa madaniy yo'nalishlarga qiziqish uyg'otish.
- ✓ *Axloqiy me'yorlar*: shaxsiy va ijtimoiy axloqiy qadriyatlarni tushunish va ularga rioya qilish.
- ✓ *Ijtimoiy moslashuvchanlik*: jamoada ishlash va o'zining madaniy xulq-atvorini boshqa kontekstlarga moslashtirish qobiliyati.

Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida yuqori madaniyatga ega pedagoglarni shakllantirishni talab etadi. Umummadaniy kompetentlik, o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish bilan birga, uning o'quvchilar bilan madaniy, axloqiy va ijtimoiy muloqotini samarali tashkil etishga yordam beradi. Umummadaniy kompetentlik bu faqatgina bilimlar to'plami emas, balki turli sohalaridagi bilimlarni amalda qo'llash, tanqidiy fikrlash va muloqot qilish ko'nikmalarining majmuasidir. Bu sifatlar bo'lajak o'qituvchilar uchun, ayniqsa, muhim, chunki ular o'z shogirdlariga nafaqat bilim berish, balki ularning shaxsini har

¹⁴ I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. 1999-yil.

¹⁵ I.A.Karimov. Barkamol avlod—O'zbekiston taraqqiyotining poydevorini yaratishdan iboratdir. IX sessiyadagi nutqidan.

tomonlarni rivojlantirishga ham mas'uldirlar. Umummadaniy kompetentlik bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy muvaffaqiyati uchun muhim omildir. Ushbu kompetentlikni rivojlantirish orqali biz yangi avlodni har tomonlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalay olamiz.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish quyidagicha olib boriladi:

–O'quv tadbirlarini tashkil etish: madaniyat va san'atning turli jihatlariga bag'ishlangan ma'ruzalar, seminarlar, muhokamalar o'tkazib borish.

–Amaliy topshiriqlar: analiz, sintez hamda ma'lumotni baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar, tadqiqotlar, ijodiy ishlarni olib borish.

–Darsdan tashqari tadbirlar: muzeylarga, teatrlarga, ko'rgazmalarga ekskursiyalarda hamda madaniy tadbirlarda ishtirok etish.

–O'zini-o'zi o'rganish: mustaqil o'qish, madaniy tadbirlarga tashrif buyurish, onlayn kurslarda qatnashishga rag'batlantirish.

Umummadaniy kompetentlik o'qituvchining kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu o'quvchilar uchun samaraliroq va qiziqarliroq o'quv muhitini yaratish, o'quvchilar shaxsini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Umummadaniy kompetentlik o'qituvchining pedagogik mahorati, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik qilish kabi kasbiy kompetensiyalari bilan chambarchas bog'liqdir. U doimiy ravishda rivojlanib borishi va bilimlarni yangilab turishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mukarram Axmedova. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2018-yil.
2. "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori.
3. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. 1999-yil.
4. A.B.Isomiddinov. Pedagogik kompetentlik. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2024-yil.
5. B.Farberman "Ilg'or pedagogik texnologiyalar"—T Fan—2000-yil.
6. N.Fayzullayeva. Pedagogik bilimlar o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi. — T.:2006.